

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2021 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rincbosarlar: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief:	Zaynabiddin Abdirashidov Kasimbay Mamurov
Executive secretary:	Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Nergis Biray, Süveyda Şahin

Özbekçede Kullanılan Türkçe Kökenli Hastalık Terimleri (Baş Bölgesi).....6

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Bahodir Karimov

Herman Vamberi – mumtoz adabiyot tadqiqotchisi.....17

Zaynabidin Abdirashidov

Abdurauf Fitrat va Buxoroda Jadidchilik.....30

Sharif Yoqubov

Besutun bitiklari Alisher Navoiy talqinida.....54

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Islom renessansida Markaziy Osiyo turkiylarining roli.....67

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Temuriylar renessansida musiqa san'ati.....91

Fatih Gür

Türk kültüründe renkler102

CONTENT

Linguistics

Nergis Biray, Suveyda Shahin

Disease Terms of Turkish Origin used in Uzbek (Head Region).....6

Literature. Translation studies

Bahodir Karimov

Herman Vamberi is a researcher of classical literature.....17

Zaynabidin Abdirashidov

Abdurauf Fitrat and Jadidism in Bukhara.....30

Sharif Yokubov

Besutun's works as interpreted by Alisher Navo'i.....54

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

The role of the Turks of Central Asia in the "Islamic Renaissance".....67

Art

Oqilkhon Ibrohimov

Musical art of the Timurid Renaissance.....91

Fatih Gur

Colors in Turkish culture.....102

Besutun bitiklari Alisher Navoiy talqinida

Sharif Yoqubov¹

Abstrakt

Ushbu maqola Alisher Navoiy asarlarida “Besutun” atamasining qo’llanishiga bag’ishlangan. Shoir hayoti davomida tarixiy voqealar, moziya daxldor yodgorliklar, xalq orasida saqlanib kelayotgan rivoyatlarni to’plab boradi. Ularga qayta ishlov berib, lirik she’rlari va epik asarlarida samarali foydalanadi. Navoiy ijodiy faoliyatida har bir so’zdan unumli foydalandi. Bu uning asarlaridagi so’zlar va atamalarning ishlatilishida yaqqol ko’zga tashlanadi. Ana shunday so’zlardan biri “Besutun” atamasi hisoblanadi. Bu atama shoirning “Xazoyin ul-maoniy” nomli turkiy va fors-tojik tilida yaratilgan “Devoni Foniy” devonlarida qo’llanilib, yorqin obrazlar yaratish imkonini beradi. Bir so’z bilan aytganda, shoir ushbu atamani o’z va ko’chma ma’nolarida qo’llab, chiroqli tashbehlar yaratdiki, u ijodkorning ruhiy olamida kezib yurgan tuyg’ularini ifodalashda muhim rol o’ynaydi. Bu atama orqali so’z san’atining nafis va takrorlanmas namunalarini yaratadi.

Kalit so’zlar: *g’am tog’i, Besutun, lirik qaqraron, Farhod, Ko’hkan, so’z san’ati, ko’ngil, g’am, qiyoslash.*

Kirish

Alisher Navoiy o’z ijodi davomida har bir so’z, atama va iboralardan unumli foydalandi. Shoir Sharq mumtoz adabiyotida eng ko’p so’z ishlatgan bo’lsa ham uning ijodida tasodifan qo’llangan bitta ham so’z yo’q [Бафоев 1983, 19]. Hatto juda kam uchraydigan so’zlar ham ijodkor ruhiy olamida kezgan ulkan voqealardan darak beradi. Shunday so’zlardan biri “Besutun” atamasi hisoblanadi. Buyuk mutafakkir bu so’zni “Xazoyin ul-maoniy” va “Devoni Foniy” she’riy devonlarida eng zarur o’rinlardagina tilga olgan bo’lsa ham, ular matn va tasvirga serqirra mazmun baxsh yetgan. Shoirning ilk she’rlar devoni – “Badoyi’ ul-bidoya”da ushbu so’zga birinchi bor

¹ Yoqubov Sharif - filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Termiz davlat universiteti.

E-pochta: sharif.yoqubov@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-3963-8787

Iqtibos uchun: Yoqubov, Sh. 2021. “Besutun bitiklari Alisher Navoiy talqinida”. O’zbekiston: til va madaniyat 3: 54-66.

duch kelamiz:

Besutung'akim sutun Farhod bo'ldi, qofi ishq.

Ul sutunni Besutun ostidagi «nun» qildilo [Navoiy 1987, 65].

Ushbu baytda shoir "Besutun" so'zining o'z va ko'chma ma'nosidan unumli foydalaniib, chiroyli tashbeh yaratadi. Ishq o'ti Farhod qalbini pora-pora qilganligini ushbu detal orqali ifodalab beradi. Birinchi misradagi "Besutun" so'zi bir qarashda o'z ma'nosida qo'llanganga o'xshasa-da, aslida tushib qolgan tog' ma'nosida ishlatilmoqda (metonimiya). "Farhod" so'zi esa ustun ma'nosini bajar-moqda. Qofi ishq izofali birikmasidagi "qof" so'zi ham tog' ma'nosida kelmoqda. Qof tog'i mumtoz adabiyotda dunyoni o'rab turgan ulkan tog' deb tasavvur qilinadi. Shu tufayli bu yerda u ishqning ko'lami va darajasini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi. Demak, ulkan ishq tog'i sifatida tasavvur qilinadi. Metonimiya usulida so'z ko'chma ma'no kasb etmoqda. Birinchi misrada "Farhod" ustun so'zi ornida qo'llangan holda, ikkinchi misradagi "sutun" so'zi Farhod ornida qo'llanadi. Qof tog'iga qiyos qilingan ishq tog'i (qofi ishq) shunday ulkan tog'ga ustun, tirkak bo'lib turgan ustunni (Farhod qaddini) "nun" qildi, ya'ni qaddini bukdi. Ushbu baytda harfiy san'atlar qo'llangan holda butun bir tog'ga ustun bo'lgan Farhod ham ishq tog'i zarbasiga dosh berolmay qaddi "nun"ga aylandi. Qaddini *nun* qilmoq mumtoz adabiyotda og'ir yuk, azob-uqubat ta'sirida oshiq qaddining bukilihi arab alifbosidagi "nun" harfiga o'xshab bukilib qolish ma'nosida qo'llangan. Qadimda "nun" harfi sevikli yorning og'ziga ham, ko'ziga ham, oshiqning bukilgan qaddiga ham qiyos qilingan. Yuqoridagi baytda esa ishq tog'i ma'shuqaning o'z sevgilisiga yetkazgan jabr-u jafosi tufayli oshiq yigitning chekkan izardilari uning qaddini *nunga* aylantirdi. Bayt markazida qofi ishq iborasi turadi. Ana shu iboranning mohiyatini anglab olsak, ushbu satrlarning mazmunini tushi-nib olish imkoniyati tug'iladi.

Eronning shimoliy viloyatida Besutun nomli tog' qoyalarida qadimdan saqlanib qolgan mixxatlarda bunyod etilgan yozuvlar bor. Ushbu xatlardan ma'lum bo'lishicha, Eron shohi Doro I (eramizgacha 522-486-yillar) jahongirlik siyosatini yurg'izib, O'rta Osiyo va Kavkazdagi Sug'diyona, Marg'iyona, Midiya, Parpiya, Sattagidya kabi mamlakatlarni bosib olgan edi. Bosqinchilarga qarshi O'rta Osiyo xalqlarining ozodlik kurashi to'xtovsiz davom etib turdi. Doro I Bobilda bosqinchilik urushi olib borayotganda, bir necha o'lkalarda unga qarshi ozodlik harakati boshlanib ketdi. Ayniqsa,

marg‘iyonaliklar shiddatli kurash olib borishdi. Bu kurashga Firaat boshchilik qilar edi. Qo‘zg‘olonchilar shafqatsiz kurashlardan keyin bostirildi. Firaat esa asir tushdi. Uning quloq-burni kesiladi, ko‘zlari o‘yib olinadi va Ekbatonda mahv etiladi [Эркинов 1985, 12]. Besutundagi mixxatlarda Doro I o‘zining ushbu jangdagi g‘alabasini yozib qoldirgan edi. Bu voqeа dastlab Doro I ga o‘z siyosatini yuritib turishga yordamlashgan bo‘lsa-da, bora-bora xalqlar va elatlar nafratiga uchray boshladi. Firaat esa ozodlik va erk uchun kurashuvchi, zulm va zo‘ravonlik qurboni sifatida keng tarqaldi.

Vaqt o‘tgan sayin bu voqeа badiiy adabiyotga ham kirib keldi. Turli davr ijodkorlari Firaatga har xil munosabatda bo‘ldilar. Ayrim qalamkashlar uni qoralashdi. Firaat so‘zi asta-sekin Farhodga aylandi. Kishilar asosiy manba bo‘lgan Besutun yodgorligini unuta boshladilar. Bu qoya rivoyat va afsonalarda ko‘pincha Farhod nomi bilan bog‘liq holda tilga olinadigan bo‘ldi. Alisher Navoiy Xuroson va Movarounnahrning ko‘p joylarida bo‘lib, tarixiy obidalarni kuzatdi. Erondagi Tehron bilan Qirmonshoh o‘rtasidagi Besutun tog‘i qoyalarida zikr etilgan yozuvlar bilan tanishdi. Xalqlar orasida sayyor obrazga aylanib ketgan Firaatning achchiq qismatini qattiq achnish bilan kuzatdi. Bu voqeani shoir uzoq yillar unuta olmadи va uni asarlari qatiga mohirona muhrladi.

Alisher Navoiy asarlarida “Besutun” va “Farhod” atamalari deyarli yonma-yon ishlatiladi. Shoир Besutun haqida fikr yuritar ekan, albatta, o’sha yerda Farhod ham tilga olinadi. Ular birgalikda qo‘llanib so‘z san‘atining nafis namunalarini yaratish imkonini beradi.

*G‘am yuki ostida qaddim bo‘ldi xam, imkoni yo‘q,
Besutunning ostida tuz asramoq Farhod qad* [Navoiy 1965, 67].

G‘am-og‘ir ruhiy holat. U har qanday odamning qalbini pora-pora qiladi. Kundan kun kishining qalbini kemirib boruvchi g‘am yuki lirik qahramonni og‘ir holatga soldi. Shoирning qaddini xam qildi (bukdi). Bu yuk ostida shoir Farhodni ko‘z oldiga keltiradi. Tayan-chi yo‘q Besutun tog‘ini ko‘tarib turishga qodir bo‘lgan Farhod ham g‘am tog‘i oldida ilojsiz qoladi. Bu g‘am tog‘ini ko‘tarishga Farhodning ham to‘zimi yetmay qaddi egildi (“nun” bo‘ldi). Shoир taqqoslash vositasida Farhodday pahlavon “qaddini “nun” qilgan”, zilday og‘ir tog‘ga dosh berishga Farhodning ham imkoni bo‘lmaganidek, g‘am yuki oldida lirik qahramonning qaddi bukildi. Farhod va Besutun detallari orqali o‘z boshiga tushgan g‘am yukini bo‘rttirib ko‘rsatdi.

*Qozmasa ko'nglum yana g'am Besutunin yaxshiroq,
Hech shirin lab chu qilmas rahm bu Farhodima* [Navoiy (a).
1965, 300].

Yuqoridagi baytda g'amnok shoир ko'nguldan zorlanadi. Ko'ngil g'am bila to'la qalbini tirnaydi. G'am inson qalbining kushandası. U g'am tog'i Besutunini kovlaydi. G'am Besutunga qiyos qilinadi. Besutun atamasi g'am tog'i ma'nosida qo'llaniladi. Besutun shoир qalbiga, ikkinchi misrada qalbini Farhodga o'xshatmoqda. Badiiy adabiyotga Farhod obrazi kirib kelgandan buyon ezgu tilakli insonlar unga havas va ayni vaqtda alohida bir achinish bilan qaraydilar. Navoiy ham Farhod obrazini butun mehri va qalb qo'ri bilan yaratdi. «Xazoyin ul-maoniy» devonlarida ham bu obrazga takror-takror murojaat qiladi. Yuqoridagi baytda ham buning yaqqol ifodasini ko'ramiz. Shoир *ko'ngul, Besutun, qazmoq* detallari orqali chiroyli tashbehlar uysushtiradi. Ishq-muhabbat va nozik sirlar maxzani bo'lgan ko'ngilga ko'p murojaat qiladi. Bu so'z shoир ijodida nozik tuyg'ularini ifodalovchi qalbiga, yuragiga o'xshatiladi. Uning xasta ko'ngli g'am Besutuni (tog'i)ni qazish bilan bandligidan zorlanadi. Bu yo'lda unga (qalbiga) hech bir shirin so'zli kishi ham g'am bilan to'la qalbiga dalda berolmaydi. G'am tog'ini qazir ekan, aziyat chekadi. Tog'-u toshlarni kovlab yuruvchi Farhod va g'am-alamga mutbalo bo'lgan ko'ngil ham g'am tog'ini qazish bilan band. Shu jihatdan harakat o'xshashligi asosida shoirning qalbi metafora usuli orqali Farhodga ko'chadi. Farhod o'z qalbini yuragiga o'xshatadi. «Bu Farhodima» birikmasi qalbimga, yuragimga ma'nosida qo'llaniladi.

Har bir shoир o'zi yashagan davr an'analari asosida ijod qiladi. Buni quyidagi bandda yaqqolroq ko'ramiz:

*Qozg'ali g'am Besutun tog'in Navoiy ilgida,
Vahki, savsan bargi ermas, teshayu Farhod erur* [Navoiy 1987, 18].

Alisher Navoiy yashagan davrda shoirlar ilik (ilig-qo'l) bilan bog'liq bir qator iboralardan foydalangan. Ilik yuvmoq (umid uzmoq), ilkini tishlamoq (afsuslanmoq), ilkini tortmoq (chechinmoq) ilkidan ketmoq (qo'ldan ketmoq) kabi birikmalar o'sha davrda o'ziga xos ko'chma ma'no anglatgan [Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati 1983 (b), II jild]. A.Navoiy o'z ijodida har bir detaldan unumli foydalanadi. Ushbu baytda shoир ilkida g'am tog'ini qazimoq iborasini qo'llar ekan, Besutun tog'i detalini g'azalga olib kirib oshiq shoир

chekayotgan g'amning darajasini oshirib ko'rsatish uchun bu atamadan foydalanadi. G'am Besutuni shunchalik oshib ketdiki, uning shu darajaga kelishiga xanjarga o'xhash savsan bargi emas, balki faqat Farhod teshasi qodir. Mumtoz adabiyotda sary va savsan (gulsafsar) ko'pincha birga qo'llaniladi. Ba'zan ularning yakka holda qo'llanganini kuzatamiz. Ayrim hollarda "yorning qaddini ham ko'p qalamga oladi, uni an'anaga ko'ra sarvga yoki savsanga o'xshatadi." [Hayitmetov 2015, 184]. Ushbu baytda esa savsanning o'tkir yaproqlarini asos qilib oladi va Farhod teshasiga qiyoslaydi. Avvalo, sarv va savsan so'zlarining bir xil tovushlar bilan boshlanishi va bir necha umumiy tovushlarning ishtirok etishi tovushlar garmoniyasi (hamohangligi)ni tashkil etadi. Ikkinchidan, sarvning chiroyli qaddi-qomati va savsan gul barglarining nafisligi, turli-tuman ranglarda tovlanib gul barglari ichidagi har bir tolachalarning ro'y-rost aks etib turishi go'zal bir musaffolkni hosil qiladi va kishini o'ziga mahliyo etadi. Ushbu baytda savsan Farhod teshasiga qiyoslangan. Uning yaproqlari o'tkir xanjarga o'xshaganligi uchun, o'sha davr an'anasisiga ko'ra, uni oshiq ilgi (qo'li)ga jarohat yetgazuvchi xanjar sifatida qabul qilingan. Ammo oshiq shoir qalbidagi ulkan jarohat savsan bargi emas, Farhod teshasi vositasida kovlash tufayli uni, ya'ni shoir savsan bargini Farhod teshasiga mubolag'ali ravishda barobarlashtiradi.

Alisher Navoiy Farhod obrazida Firaatning eng muhim qirralarini ko'ra oldi. Besutun qoyasida aks ettirilgan yodgorlikdagi Firaat Farhod obraziga asos bo'lganligiga ishonch hosil qildi. Alisher Navoiyning o'rta yoshlarida bitilgan:

Besutun Farhod qabridur qizorg'on loladin,

Yo aning qonidin o'lmish tuprog'i har yon qizil [Navoiy (a) 1965, 204], baytida shoirning o'ziga xos xulosasini kuzatamiz. Marg'iyonalik ozodlik uchun kurashchi Firaatning siymosi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Nihoyat, buyuk mutafakkir ruhiy olamida kezib yurgan fikrlarining bir nuqtaga kelib to'xtaganining guvohi bo'lamicid. Alisher Navoiyning ushbu xulosasi o'z holicha qolib ketmadi. O'tmishdagi ozodlik uchun kurashuvchi Firaat qismatini chuqur o'rganib, uning siymosida xalqlarning umumiy manfaati yo'lida qo'rmas kurashchi-qahramonni ko'rdi. Keyinchalik, bu mavzu shoirning «Farhod va Shirin» dostoniga ko'chdi. Farhodni dostonning bosh qahramoni darajasiga ko'tarishga asos bo'lgan voqeа ham aynan shoirning Besutun qoyalarida ko'rgan va sinchkovlik bilan qiziqib kuzatgan taassurotlari bo'lsa ajab emas. Yana bir gap: Shoir

Farhod obrazida ozodlik va erk uchun kurashuvchi qadimgi O'rta Osiyolik bobolari siymosini aks ettirishni qalbiga tugib olgan ko'ri-nadi.

Alisher Navoiy yirik dostonlarini yaratishdan oldin ular-dagi obrazlar, voqealar va kechmishlar haqida o'z xulosasini she'riy asarlarida takomillashtirib bordi. Bu, o'z navbatida, shoirning «Xamsa»dek ulkan asarni juda qisqa vaqt ichida tugallash imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek tilidagi g'azallaridagi kabi forsiy g'azallarida ham "Besutun" atamasi Farhod nomi bilan deyarli yonma-yon qo'llaniladi. Shoir asarlarida Farhodning kechmishlari tog'-u toshlarda o'tganligi tufayli unga nisbatan "tog' ahli" birikmasi ham ishlatiladi. Majnuning sarguzashtlari cho'l-u biyobonda o'tganligi uchun "dasht ahli" birikmasi unga nisbat beriladi. Alisher Navoiy ustozlarining asarlariga javob sifatida tatabbu'lar ham yozgan. Tatabbu' biror shoirga ergashib, ustoz qalamiga mansub uslubni saqlagan holda unga javob qilmoq hisoblanadi. Shoir ustozlarining asarlariga o'z hurmatini ifodalagan holda tatabbu' yozadi. Navoiyning bu usulga qanchalik jiddiy ahamiyat bergenligi "Devoni Foni" misolida ham yaqqol kuzatiladi. Devondagi 554 g'azalning 361 tasi tatabbu' janridagi she'rlar bo'lib, ustozlari: Hofiz, Jomiy, Amir Xusrav, Sa'diy, Abdurahmon Kotibiy, Mavlono Shohiy, Kamol Xo'jandiy g'azallariga qilingan tatabb'ular hisoblanadi [Исхоков 2014, 225].

Ba Ko'hkan nigaru Besutun, ki on go'y

Dili tapandavu in yak g'ami garoni man ast [Navoiy (a) 2013, 77].

Bizning diqqatimizni o'ziga tortgan ushbu bayt shoirning Amir Xusrav Dehlaviyga tatabbu' qilib yozilgan ("Tatabbu'i Mir) g'azalidan olingan. Ushbu g'azal shoirning ma'shuqasi tomonidan ko'rsatilgan jabr-u sitamlardan zorlanishini ifodalaydi. Oldingi baytlarda turli vositalar yordamida o'zining ruhiy kechmishlarini ifodalab kelgan shoir ushbu bandda Besutun va Ko'hkan obrazlariga murojaat qiladi. Sevikli yor tomonidan yetkazilayotgan ozorni Ko'hkan obrazi bilan qiyoslash jarayonida ifodalaydi. Ko'hkan (Farhod)ning Besutun tog'ini maydalayotgani tasvirlanib, ko'hni kovlash uchun teshasi bilan tog'ga berilayotgan har bir zarbasi tog' qa'rini yemiradi. Bu zarba tog' jinslariga ta'sir qiladi. Shoirga go'zal mahbubaning e'tibor bermasligidan tufayli chekkan iztiroblari bayon etiladi. Ma'shuqa tomonidan yetkazilayotgan azob-uqubat Farhod teshasining zARBIGA qiyos qiladi.

O'zbek mumtoz adabiyotida mavhum narsalarni hayotiy narsalarga, voqealarga qiyoslab o'rganish o'sha narsaning mohiyatini anglab olishga yordam beradi. Imonning ko'payishi va kamayishi haqidagi munozarani farqlashda quyosh nurining kamaymasligi, ammo quyoshning yerga tushib turgan nuri quyosh bilan yer o'rtasida bulutlar paydo bo'lsa, yerdagi quyosh nurining xiralashishi misolida tushuntirgan edi [Termiziy 2007, 10]. Alisher Navoiy ham mavhum fikrlarni, xususan, bevafo yor tomonidan yetkazilgan jabr-u sitamlarni bayon etishda bu usuldan samarali foydalanadi. Bu haqda taniqli navoiyshunos Nusratulla Jumaxo'janing quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Shoirning mahoratiga qoyilki, u mavhum, sirli narsa va hususiyatlarni hayotiy hodisalar bilan qiyoslash vositasida ayonlashtirib hayratomuz tarzda tasvirlab beradi" [Jumaxo'ja 2018, 70].

G'azalning har bir baytida turli xil narsa va hodisalar asosida mahbuba tomonidan yetkazilayotgan jabr-u sitam haqida fikr yuritiladi hamda u Farhod va Besutun tog'i dagi voqealarga qaratiladi. G'azalning 4-bandida ma'shuqa tomonidan yetkazilayotgan sitam Ko'hkan teshasi tomonidan Besutun tog'i qa'rige yetkazilgan zarb shoirning yuragiga payma-pay urilayotgan zarbaga qiyos qilinadi. Bu zarba shoirning qalbini larzaga keltiradi.

*Siyai man ko'hi g'am mekanam az noxunash,
Bori dilam Besutun, man ba taxash Ko'hkan* [Навоий (б).
1965, 186].

(Mazmuni: *Ko'ksim g'amning tog'i, uni tirnoq bila qaziyan,*
Dilim yuki Besutun tog'i, men uning ostida tog' qazuvchi Far-
hodman).

Yuqorida bandda lirik shoir o'z ko'ksini g'am tog'iga qiyos qiladi. U tog'ni tirnog'i bilan qaziydi. Shoirning ko'ksi shunday ja-fokashki, u tog'ga o'xhatiladi. Bu tog' g'am va iztiroblar bilan to'la. G'am tog'ini tirnog'i bilan qancha qazisa ham u hech tugamaydi. Bu yerda g'am va iztiroblar makoni ko'ksi bilan dili (qalbi)dagi og'ir yuk Besutun tog'iga qiyos qilinadi. G'am tog'i ko'ksini tirnoq bilan qazi-sa, qalbidagi yukni tirnoq bilan emas, tog' qazuvchisi Ko'hkanning teshasi bilan qaziyman, degan fikrni aytib, qalbidagi g'am-tashvish-larining cheksizligiga ishora qiladi. Bu yerda ham tirnoq va Ko'hkan teshasi bilan kavlash detallari orqali ishqning darajasini, ma'shuqa yetkazgan jabr-u jafo tufayli oshiq chekayotgan iztiroblarni bo'rttirib ko'rsatish imkonini yaratadi. Mumtoz adabiyotda g'amni tirnoq bilan qazish iborasini qo'llash an'ana tusiga kirgan edi. Bu ibora oshiq

chekkan tunganmas va cheksiz g'amga nisbatan ishlataladi. Navoiy yana bir g'azalida ushbu iborani:

Reshlar ko'ksumda ko'r, Farhod bahsin qo'ykim, ul

Qozmadi mendek balo tog'ini tirnog'i bila [Навоий 1963, 377], bandida ham muvaffaqiyatli qo'llaydi. Ushbu baytda lirik shoir o'z qismatini Farhod bilan taqqoslaydi. Tirnoq bilan g'am tog'ini qazimoq iborasi oydinlashadi. Bayt mazmunidan sezilib turilishicha, Farhod o'z maqsadiga yetishish yo'lida tog'ni teshasi bilan kovlash epizodi nazarda tutiladi. Ko'ksimdagи reshlar (jarohat) larga boqib ko'r, mening qismatim tog'-u toshlarni o'z teshasi bilan qazigan Farhod bahsi mening iztiroblarim oldida hech gap emas. Farhod g'am tog'ini o'z teshasi bilan qazisa, men Besutunday qalbimni tog' qazuvchi ko'hkanday qaziyman. Farhod teshasi bilan, men esa tirnog'im bilan kovlayman. Shoir Farhod haqida bahs yuritar ekan, o'z qismatining unga o'xshamasligini ta'kidlaydi. Farhod teshasi bilan tog'ni kovlasa, oshiq shoir o'z ko'ksini tirnog'i bilan qaziydi. Tirnoq bilan ko'ksini qazimoq nihoyatda mashaqqatli ish. Xalqimizda hozirgi kunda ham "ko'ksini tirnamoq, ko'ksini yerga berib yotmoq, ko'ksiga urmoq, ko'ksini ko'tarmoq, ko'ksini tilmoq, ko'ksini pora-pora qilmoq" singari iboralar ishlataladiki, inson ichki kechinmalari ko'ks orqali o'z ifodasini topadi.

Ko'hkan Farhodning laqabi. Bu so'z tuzilishi jihatidan qo'shma so'z bo'lib, fors tilidagi ko'h (tog') va kan (kandan-qazimoq) fe'llaring birikuvidan hosil bo'lgan. U tog' qazuvchisi ma'nosini bildiradi. Tog' qazuvchi Ko'hkan (Farhod) bilan o'zini qiyos qilar ekan, lirik shoir o'z iztiroblari va qismatining Ko'hkan g'amidan ham og'ir ekanligini bayon etadi. Shoir o'z qismatini Ko'hkanning ishq qismati ga qiyoslaydi. O'zi chekayotgan ishq iztiroblarining Ko'hkandan-da ortiq ekanligini tirnoq va tesha vositasida g'am va ishq tog'ini qazimoq detallari orqali bayon etadi va ular o'zaro taqqoslanadi. Shoir bu qiyos va taqqoslashda o'z iztiroblarining Ko'hkan kechmishlari dan ham mashaqqatli ekanligini ilgari suradi.

Alisher Navoiy "Devoni Fony" asarida she'riy devon talabidan kelib chiqqan holda katta-yu kichik janrlarda ijod qilgan. Ana shunday janrlardan biri chiston va lug'z hisoblanadi. Fors-tojik tilida lug'z (ko'pligi lug'az)larda topilishi talab qilingan narsalarning eng muhim belgilari haqida yoziladi. O'quvchi lug'zda olg'a surilgan fikrlardan xulosa chiqargan holda yashiringan narsaning nomini aniqlashi zarur bo'ladi. Shoir devonlaridan o'zbek tilida 10 ta, fors-tojik tilida 9ta lug'z o'rinni olgan. "Devoni Fony"dan keltirilgan

lug'zlearning oxiridan o'rin olgan kema haqidagi fikrlarini bayon qilishda Besutun atamasidan foydalanadi.

*Chi ko'hest on? Ki dar hay'at buvad, chun Besutun, lekin
Ravon ast on, agarchi ko'hro natvon ravon guftan.
Buvad chun besutun, ammo ba tah chorash sutun bini,
Ki har yakro az onho pilpoya metavon guftan [Навоий (б) 1965, 448].*

Mazmuni: *U qanday tog'? U shakli va ko'rinishida ustunlarsiz (suyanchiqsiz), lekin U har doim ravon yurmoqda, lekin tog'ni ravon yuradi deb bo'lmaydi. Uning o'zi ustunsiz (suyanchiqsiz), quyida to'rtta ustunni ko'rasiz, Vu ustunlarning har birini fil oyog'i va boltaga o'zshatish mumkin.*

Shoir ushbu lug'zni yozar ekan, kemaning o'ziga xos ayrim belgilarini bayon qiladi. Kema dengizda suzadi. Ulkan suv sathida suzib kelayotgan kema uzoqdan tog'ga o'xshaydi. Dengizda suzayotgan yoki muallaq turgan narsa, kema, qayiq, albatta, katta bo'lib ko'rindi. Bunday holat tekis joyda ham xuddi shunday aks etadi. Yosh Alisherning Yazd cho'lida uxbab qolib, oilasi ketayotgan karvondan adashib qolganda uzoqdagi oftoba ham ulkan gumbazga o'xshab ko'ringan edi. Bu kemaning uzoqdan ko'rinyotgan birinchi belgisi hisoblanadi. Ikkinci belgisi uzoqdan ko'ringan narsa (kema) yuradi. Ushbu uzoqdan ko'ringan narsaning yana bir belgisi yurishidir. Lekin tog'ni yuradi deb bo'lmasligi uning tog' emasligini ko'rsatadi. Besutunni kemaga ishora qilishda "Besutun" so'zining appelliativ ma'nosiga ham asoslanadi. Ko'rindiki, shoir ushbu lug'zda kemaning muhim belgilarini bayon qiladi. Zukko o'quvchi bir oz fikr yuritsa, uning nomini oson topib oladi.

Sohir so'z san'atkori Navoiy har bir so'zdan unumli foydalanadi. So'zning onamastik va appelliativ ma'nolarida qo'llab, chiroyli tashbehlar yaratadi. Quyidagi misrada uning yorqin namunasini ko'ramiz. Navoiy yoshligidan koinot va osmon jismlari harakatiga e'tibor qaratdi.

Shoir Samarqandda bo'lgan paytlarda va keyinchalik Hirota borganda ham falakiyat ilmi bilan jiddiy shug'ullandi. Ayniqsa, Fazlulloh Abulaysiy madrasasida o'qigan paytlari Samarqand madrasalarida bir qator fanlar bilan falakiyatga oid ilmlar ham o'rgatildi. Navoiy ana shu bilimlar bilan oziqlandi, uning falakiyatga oid fikrlari va qarashlari asarlarida takror-takror uchraydi. "Hayrat ul-abror" dostonining 48-bobidagi 14-maqolatida quyidagi satrlarni o'qiymiz.

*Mixu sutunsiz tikibon chodarin,
Davri etib chodarining paykarin.
Anda bo'lib jilvagar anjuman,
Har sori yuz lo'bati simin badan* [Навоий (а) 1991, 246].

Nasriy bayoni: "...U mixsiz, ustunsiz chodir tikadi; chodirning ko'rinishini doira shaklida qiladi. Unda yulduzlar jilvagar bo'lib, kumush badani bilan yuz xil o'yinlar namoyish etadi [Хайитметов 1974, 101]. O'zi yashagan XV asr sharoitida geosentrik (koinotning markazi yer) qarash asosida koinotning bizning ko'zimizga ko'rini turgan holatini bayon etadi. Oddiy ko'z bilan qaraganda "Osmon sferasi bevosita ufq doirasiga tegib yaxlit bir manzarani tashkil etadi" [Azizov 2018, 51]. Lekin bu chodir biror narsaga mixlanmagan, mahkamlanmagan muallaq ustunsiz turadi. Alisher Navoiyning olam tuzilishi haqidagi qarashlarida olamning beustun modeli yetakchi hisoblanadi. Olam tuzilishi haqidagi yuqoridagi osmon chodirining ustunsiz, mixsiz muallaq turishi uning asosini tashkil etadi. "Besutun" so'zi ustunsiz, tayanchsiz, muallaq turuvchi ma'nolarini anglatadi. Ushbu misradagi ustun(siz) - ustuni yo'q ma'nosida o'zining appelliativ ma'nosida qo'llanilgan. "Sutun" forscha so'z bo'lib, ustun, tirkak, tirkavich ma'nolarida qo'llanadi [O'zbek tilining izohli lug'ati 2007, 598]. "Besutun" so'zidagi "be"- qo'shimchasi "sutun" asosiga qo'shilib, forscha o'zakdan anglashilgan lug'aviy ma'noga ega emaslikni ko'rsatadi. O'zbek tilida forscha "be"- qo'shimchasiga sinonim bo'lgan "-siz" o'zbekcha qo'shimchasini qo'shish bilan ham yuqoridagi kabi ma'no anglatuvchi so'z hosil qilinadi va u "besutun" so'zining appelliativ ma'nosiga to'la mos keladi. Ularni o'zaro almashtirib qo'llash mumkin. Alisher Navoiy ustun so'zining appelliativ ma'nosidan ham unumli foydalanadi. "Xazoyin ul-maoniy" asarida so'zning appelliativ ma'nosini yordamida chiroyli tashbehtar uyushtiradiki, uni o'qib shoirning betakror lirik ijodkor ekanligiga amin bo'lasiz.

*Bir qadam vayronima qo'ykim, g'amindin tunu kun,
Yuzga ilgimdur sutun tuproqqa botib tirsagim* [Навоий (б). 2013, 411].

Baytda shoir sevimli yorning ko'rsatgan jafosi, e'tiborsizligi va beparvoligidan zorlanib "ahvolimdan xabar olish uchun vayronamga qadam qo'y, ahvolimni ko'r" deb murojaat etib iltijo qiladi. Yorning jafosidan boshini qo'liga olib yerga mukka tushib yotgan oshiqning

